

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Mavlonova

Inkluziv ta'lif o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari 214

Z.M.Xursanova

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni 219

A.B.Mirzayev

Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses 223

Sh.A.Pakirdinova

Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lif jarayonida ahamiyati 226

Sh.A.Pakirdinova

Comparative analysis of online and traditional classroom learning 231

M.M.Umaralieva

Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools 235

Z.N.Usmonov

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiyasi 239

A.T.Akbarov

Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari 246

U.K.Rahmonov

Musiqa madaniyat darslarini olib borishda ta'lif beruvchining o'mni 252

U.K.Rahmonov

Musiqa darslarida zamonaliv texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati 256

V.Abdurakhmanov

"The challenges of teaching english to international students" 261

D.Y.Irmatov

Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lif yoshidagilar "Ontogonez"iga mansub bilimlar 265

Н.Собиров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин

Инновационная педагогическая деятельность 269

IQTISODIYOT

M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadiyeva

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi 273

K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadiyeva

Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbliji va konseptual asoslari 276

FALSAFA

N.M.Axmadiyev

Ijtimoiy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfatlar to'qnashuvi 281

I.Toirov

Milliy davlatchilik asoslарини mustaxkamlash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatları 284

I.A.Nurmatova

Jamiyat ma'nnaviy muhitida oila institutining roli 289

SIYOSAT

B.P.Zokirov

Jinoi aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari 293

S.M.Xoliqov

Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari 301

B.P.Zokirov

Xorijiy ilg'or tajribalar jinoi aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida 304

S.M.Xoliqov

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar 314



УО'К: 321.7

**MILLIY DAVLATCHILIK ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH VA FUQAROLIK JAMIYATI
BARPO ETISHNING FALSAFIY JIHATLARI**

**ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ УКРЕПЛЕНИЯ ОСНОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ГОСУДАРСТВЕННОСТИ И ПОСТРОЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**

**PHILOSOPHICAL ASPECTS OF STRENGTHENING THE FOUNDATIONS OF NATIONAL
STATEHOOD AND BUILDING A CIVIL SOCIETY**

Ilxom Toirov

Farg'onan davlat universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash va fuqarolik jamiyatni barpo etishning falsafiy jihatlari tadqiq etilgan. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarda shakilangan yangicha siyosiy va falsafiy dunyoqarash «yuksak ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining asosi» ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda «ma'naviyat», «qadriyat», «madaniyat», «inson», «komil inson», «fuqarolik jamiyati», «sivilizatsiya», «sivilizatsiyali taraqqiyot», «huquqiy davlat», «xususiy mulk», «inson huquqlari», «shaxs erkinliklari», singari umumbashariy va falsafiy tushunchalar mohiyatini yangicha tushunishda metodologik asos, ilmiy paradigma bo'lib xizmat qila boshladi.

Аннотация

Новое политико-философское мировоззрение, сформировавшееся в нашей стране в годы национальной независимости, наряду с признанием того, что «высокая духовность-основа развития общества», «духовности», «ценность», «культура», «человек», «совершенный человек», «гражданское общество», «цивилизация», «цивилизованный прогресс», методологической основой, научной парадигмой в новом понимании сущности стали служить такие универсальные и философские понятия, как «правовое государство», «частная собственность», «права человека», «свободы личности». В данной статье рассматриваются философские аспекты укрепления основ национальной государственности и построения гражданского общества.

Abstract

A new political and philosophical worldview formed in our country during the years of national independence, along with the recognition that "high spirituality is the basis of the development of society", "spirituality", "value", "culture", "man", "perfect man", "civil society", "civilization", "civilized progress", such universal and philosophical concepts as "the rule of law", "private property", "human rights", "individual freedoms" began to serve as a methodological basis, a scientific paradigm in a new understanding of the essence. This article examines the philosophical aspects of strengthening the foundations of national statehood and building a civil society.

Kalit so'zlar: jamiyat, milliy davlatchilik, fuqarolik jamiyati, davlat, ijtimoiy himoya, demokratik davlat, milliy mafkura.

Ключевые слова: общество, национальная государственность, гражданское общество, государство, социальная защита, демократическое государство, национальная идеология.

Key words: society, national statehood, civil society, state, social protection, democratic state, national ideology.

KIRISH

Tevarak-atrofimizda, ijtimoiy hayotimizda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar ayni vaqtida ongimiz, dunyoqarashimizda ham muhim o'zgarishlar ro'y berayotganligini, ko'p hollarda tafakkur streotiiplari (bir xil qolipda fikrash), eskichka fikrash va boshqarish usullari taraqqiyotimizga jiddiy halaqit berayotganligidan guvoqlik beryapti. Milliy mafkura ong va tafakkurimizni «milliy davlatchilik», «milliy o'zlikni anglash», «fuqarolik jamiyati», «huquqiy davlat», «shaxs erkinliklari», «inson huquqlari» singari tushunchalar bilan boyitdi. Biz, nihoyat, ulug' ajdodlarimizning asriy orzusi-milliy davlatchiligidimizni qaytadan tiklash, bozor munosabatlariiga asoslangan erkin, ochiq demokratik jamiyat, xalqimizga munosib to'q va farovon hayot barpo etish, o'zimizga xos va o'zimizga mos sivilizatsiyali taraqqiyot yo'lini tanlash imkoniga ega bo'ldik.

FALSAFA

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Avvalo, davlat, fuqarolik jamiyatni to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarimiz o'zgardi, yangicha mazmun va ahamiyat kasb eta boshladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylandi[1].

G'arb sivilizatsiyasi va siyosiy madaniyatimizning muhim yutug'i bo'lgan demokratik qadriyatlar (konstitutsiya, saylov, inson huquqlari, shaxs erkinligi, qonun ustivorligi, hokimiyatning bo'linishi va hokazo) ma'naviy hayatimizdan mustahkam o'r'in egallay boshladi. G'arb olimlari va faylasuflarining siyosiy qarash va ta'lismotlarini xolisona ilmiy asosda o'rgana boshladik.

Gegelning ta'lim berishicha, davlat sivilizatsiyaning asosidir[2, 449]. AQShning sobiq Prezidenti F.Ruzveltning ta'kidlashicha, «davlat odamlar uyushgan jamiyatining o'zaro himoyalanish va farovonlikka erishish uchun ta'sis etgan organidir. «Davlat» yoki «hukumat» ana shunday o'zaro yordam va himoyaga erishiladigan apparatgina emas, davlatning fuqarolar oldidagi burchi kabitidir.

Davlatning majburiyatlaridan biri o'z fuqarolari haqida, boshqalarning yordamisiz yashay olmaydigan, noqulay sharoitning qurboni bo'lib qolganlar haqidagi g'amxo'rlik qilishdir. Davlatning bu majburiyati barcha sivilizatsiyalashgan mamlakatlarda e'tirof etiladi. Hukumat tomonidan bunday baxtsiz fuqarolarga ko'rsatiladigan yordam xayr-ehson shaklida emas, balki ijtimoiy burchni bajarish tartibida bo'lishi kerak»[3].

Demokratik davlat o'zining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun avvalo u o'z suverentetiga ega bo'lishi talab etiladi.

Yosh mustaqil davlat oldida avvalo demokratik taraqqiyotning huquqiy asoslarini yaratish, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimini demokratik asosda, ilg'or G'arb mamlakatlarining tajribasi asosida tubdan isloq qilish, G'arb sivilizatsiyasining ilg'or yutuqlaridan foydalanish, bozor munosabatlariiga o'tishning milliy mentalitetimiz, an'ana va madaniyatimizga mos modelini yaratish vazifasi paydo bo'ldi.

O'zbekistonda demokratik davlatning asosiy qonuni – Konstitutsiyani ishlab chiqishda ilg'or G'arb mamlakatlarining konstitutsiyaviy davlat barpo etishdagi yutuq va tajribalarini hisobga olindi va shu jarayonda huquqiy demokratik davlatning kuch-qudrati keng xalq ommasining siyosiy ongi, madaniyati va faolligiga bog'liq ekanligi, agar keng xalq ommasi demokratik islohotlar jarayonida faol ishtirok etmasa, siyosiy partiylar va qarashlar xilma xilligi amalda qaror topmasa, demokratiya to'g'risidagi chiroyli so'z va g'oyalar quruq safsataga aylanishi mumkinligiga tobora ko'proq amin bo'la boshladik.

To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda.

Bozor munosabatlariiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda»[4, 64]. Demokratiya mamlakat iqtisodiyotida xususiy mulk egalari, sanoatchilar salmoqli, hal qiluvchi rol o'ynaydigan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlari davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan nazorat o'matadigan, davlatga nisbatan muqobil kuch sifatida namoyon bo'ladigan sharoitdagina o'zining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini namoyon eta oladi.

Milliy mustaqillikning dastlabki yillardanoq davlatimiz rahbari tomonidan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy va diniy qadriyatlarimizni tiklash, xalqimizni asrlar davomida bir jon va bir tan bo'lib birlashishiga ko'mak bergen ilg'or an'ana va urf-odatlarini (Navro'z bayrami, lyd va ramazon bayramlari, Hosil bayramlari, milliy sport va hokazo) tiklash va rivojlantirishga qaratilgan farmonlari mamlakatimizni siyosiy parokandalik, boshboshoqlik, urush va mojarolardan eson-omon saqlab qolishda, bir so'z bilan aytganda, sivilizatsiyali taraqqiyot sari qadam tashlashida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Biz mustaqillik tufayligina ong, ijodkor va erkin tafakkur jamiyat taraqqiyotning asosi, yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ekanligini anglab yetdik. Bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik erkin raqobat sharoitida jamiyatni inqirozdan, qoloqlik va qashshoqlikdan qutqarishiga amin bo'la boshladik. «Bugungi kunda bizning ishimizdagi eng katta nuqson, – deb yozadi O'zbekiston Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev 29 dekabr kuni parlamentga qilgan murojaatida, bu — bilimlarning yetishmasligi va shuningdek., korrupsiya. Bu, afsuski, barcha sohalarda seziladi”[5]. Uning ta’kidlashicha, zamonaviy bilimlarsiz biron ta mintaqani va biron ta sanoatni rivojlantirish mumkin emas. Rivojlangan mamlakatlarda YalMning 50% dan ortig’i «ilm-fan iqtisodiyoti», ya’ni innovatsiya va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratiladi. Holbuki, birorta hududni ham, tarmoqni ham zamonaviy ilm va bilimlarsiz rivojlantirib bo’lmaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlash masalasi o’zining mazmun-mohiyatiga ko’ra demokratik jarayonlarni jadallashtirish, sivilizatsiyali taraqqiyot sari keng yo’l ochish bilan uzviy bog’liq.

Keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O’zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”[6]gi qonunning qabul qilinishi ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta’lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta’lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo’shma fakultet va o’quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o’qituvchilarga mualliflik dasturi va o’qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o’qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo’lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o’choqlaridan biri bo’lganini ko’ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebafo me’moriy obidalar, nodir qo’lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulug’ ajdodlarimiz, ayniqsa, Farobi, Beruniy, ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir-Temur, Bobur va boshqalar o’zlarining ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarida odil va ma’rifatli hukmdor shaxsiga alohida e’tibor bergenlar: jamiyatning tinch va osoyishtaligi, xalq farovonligi va yurt obodonchiligi avvalo hukmdorning shaxsiy va insoniy fazilatlarga bog’liq deb hisoblaganlar.

Har bir mamlakat ijtimoiy rivojlanishning sifat jihatdan yangi holatiga o’tish davrida, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik singari muammolarga duch keladi. Davlatimiz rahbari o’tish davrida jamiyatimiz duch kelgan muammolarni hal etishning jahon tajribasida sinalgan sivilizatsiyali vositasi – fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirishning zarurligini shunday izohlaydi: “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil amalga oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot ositalari alohida o’rin egallaydi. Shu bois jamoatchilik nazoratining ta’sirchan mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida zarur choralar ko’rishimiz kerak. Bu borada «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatni sari» konsepsiyasini izchil davom ettirish eng ustuvor vazifalarimiz qatoriga kiradi”[7, 58]. Fuqarolik jamiyatni institutining shakllanishi huquqiy asoslarni yaratishgagina bog’liq emasdir. Qonun ustivorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta’minlamasdan turib fuqarolik jamiyatini qurish haqida so’z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

Demokaritk davlat tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish, qonun ustivorligini ta’minlash, huquq va sud tizimini isloh qilish, xalq o’rtasida siyosiy va huquqiy madaniyatni keng targ’ib etish orqali fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Muayyan iqtisodiy farovonlikka erishgan, bir amallab tirikchilik o’tkazish uqubatlaridan ozod bo’lgan siyosiy faol va huquqiy madaniyatga ega bo’lgan fuqarolargina o’zlarining qator hayotiy muammolarini davlatning aralashuviziz hal etish uchun ko’ngilli uyushmalar tuzish va bo’sh vaqtlarida uning faoliyatida ishtirok etish imkoniga ega bo’ladilar. Fuqarolik jamiyatni institutlari rivojlangani sayin davlat o’zining qator vazifalarini ana shunday ko’ngilli uyushmalar, o’z-o’zini boshqarish organlari ixtiyoriga o’tkaza boshlaydi. Fuqarolik jamiyatni institutlarining faoliyati jamoatchilik asosida, unga a’zo bo’lgan kishilarning a’zolik badallari, xayri-ehsonlar hisobiga tashkil etiladi. Bunday ko’ngilli uyushmalar xalqdan undiriladigan soliqlar hisobiga, davlat tomonidan beriladigan maosh va imtiyozlar hisobiga ishlaydigan mansabdor shaxslarning xalqqa sidqidildan xizmat qilishini talab etadilar.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko’lamlı islohotlarning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo’yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash va davlat xizmatlari ko’rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma’lumotlar bazalari yaratildi. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun www.license.g’v.uz, «yagona darcha» tamoyili bo’yicha

FALSAFA

davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash uchun birdarcha.uz veb-saytlari yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish natijasida tadbirkorlik subektlarini ro'yxatga olishning tartib-taomillari 4-martaga, ro'yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqaga qadar qisqartirildi. Shu bilan birga, so'nggi yilda amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlarning obektiv tahlili, davlat boshqaruvi organlari faoliyati, aholi bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqot natijalari mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli hal etishga ehtiyoj vujudga kelganligini ko'rsatdi.

Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmon 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga ko'ra O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib beradi[8].

Tub demokratik o'zgarishlar sharoitida sud va huquq tizimini muttasil takomillashtirish, qonun ustivorligini ta'minlash, Konstitutsiyaning ruhi va mohiyatini kishilar ongi va qalbiga singdirish demokratik davlat faoliyatida juda muhim o'rinn egallaydi. Huquqiy bilim va madaniyatni xalq o'tasida keng targ'ib etishda professional siyosatchilar, ilm-fan ahllari, butun ziyoililar muhim rol o'ynaydilar. Chunki kishilarning qonun va qarorlar qabul qilish jarayonidan qanchalik xabardorligi, davlat qonunlari ijrosining xalq tomonidan qay darajada nazorat qilinishi, mamlakat fuqarolarining davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishi demokratiyaning qay ahvolda ekanligini belgilovchi muhim mezon hosoblanadi. Jamiyat a'zolarini, mamlakat fuqarolarini huquqiy boshqarish, qonun va Konstitutsiyaga ongli ravishda itoat qilish madaniyatini shakllantirish, yosh avlodni mamlakat fuqarosi etib tarbiyalash g'arb sivilizatsiyasining eng muhim xususiyatidir.

Demokratik davlat inson huquqlarini himoyalash, shaxs erkinliklarini huquqiy kafolatlashni o'z zimmasiga olar ekan, bir kishining boshqa bir odamning erkinligini cheklamasligi uchun insonning xatti-harakat, xulq-atvor va faoliyat erkinligini qonun yo'li bilan cheklaydi va kishilar ongida: inson qonun bilan ta'qiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishda erkendir, degan ishonch va tushuncha shakllanadi. Huquqiy demokratik davlatda hammaning qonun oldida tengligi prinsipi amal qilar ekan, kishilar qonunga itoat qilish, unga ongli ravishda bo'ysunish bilan o'zlarini erkin his etadilar. Huquqiy davlat konstitutsiyasi butun mamlakat aholisi uchun qadrli, muqaddas demokratik qadriyatga aylanadi.

G'arbiy Yevropaning siyosiy falsafasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini bir-biridan farqlash, ularning mohiyati, maqsadi va vazifalarini aniq chegaralash masalalari juda muhim o'nin egallab kelgan. Jumladan, mashxur nemis faylasufi Gegel ana shu masala haqida fikr yuritar ekan, shunday deb yozgan edi: «Agar davlat fuqarolik jamiyatini bilan aralashtirib yuboriladigan bo'lsa va uning vazifasi mulk hamda shaxs erkinliklarini ta'minlash va himoyalashdan iborat deb hisoblanilsa, u holda alohida olingan odamlarning manfaatlari so'nggi maqsad bo'lib qoladi. Holbuki, ular ana shu manfaatlар uchun birlashgan edilar, bundan esa o'z istaklaringga bog'liq ravishda davlatga a'zo bo'lish yoki a'zo bo'lmaslik mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Biroq aslida davlatning individiga bo'lgan munosabati butunlay boshqachadir: davlat ob'ektiv ruh ekan, individ davlatga qanchalik a'zo bo'lsa (fuqarolik hissi qanchalik rivojlangan bo'lsa – T.I.), u ob'yektivlikka, haqiqatga va axloqqa shunchalik ega bo'ladi. Bunday birlashuv eng haqiqiy mazmun va maqsaddir, individlarning vazifikasi eng umumiy hayot kechirishdir: ularning bundan keyingi qoniqishi, faoliyati, xulq-atvor xarakteri ana shu substansionallik va eng umumiyligidan boshlanadi va uning mahsulidir». Gegelning ta'lim berishicha, huquqiy davlatning kuchi, salohiyati va qadriyati jamiyat a'zolarida fuqarolik his-tuyg'usi, burch va majburiyatini anglash hissini tarbiyalashdadir. «Ko'pincha davlatning maqsadi fuqarolarni baxtli qilishdir, deydilar, bu, shubhasiz, to'g'ri: agar fuqarolarning ahvoli yaxshi bo'lmasa, agar ularning sub'ektiv maqsadlari qondirilmagan bo'lsa, agar ular bu ehtiyojlarini qondirishda davlatning vositachilagini ko'rmasalar, davlatning mustahkamligi shubhalidir».

Huquq va burch, erkinlik va mujburiyat bir-biri bilan uzviy bog'liqidir; ularning bari ikkinchisini taqozo etadi. «Qullarning majburiyatları yo'q, chunki ular huquqsizdirlar va aksincha. Majburiyat va huquqni birlashtirish tushunchasida... davlatlarning ichki qudrati mujassamlashgan».

Kishilarda vatanparvarlik hissining shakllanishi, vatan ozodligi va mustaqilligi uchun kurash tuyg'usi ularning davlat oldidagi burchini anglashi, davlatning buyuk g'amxo'rliklari va xizmatlari oldidagi burchini ado etishi sifatida namoyon bo'ladi. Gegel ta'biri bilan aytganda, «odatiy kundalik hayotda davlatni substansional asos va maqsad deb biladigan kishilar davlat xavfsizligi va

manfaatlari yo'lida favqulodda fidoiylik qilish va jasorat ko'rsatishga tayyor turadilar. Buni ko'pincha vatanparvarlik deydilar»

Huquqiy demokratik davlat insonning haq-huquqlarini himoya qilish, uning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yari ekan, «xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak. Jamiyatdagi ijodkor ozchilik – ziyorilar, ilm-fan ahllari, adib va jurnalistlar, aqliy mehnat kishilari huquqiy demokratik davlatning sivilizatsiyali jamiyat barpo etishi yo'lida paydo bo'lgan kamchilik va nuqsonlarga qarshi faol kurash boshlasagina, demokratik davlat tanqidiy fikrlovchi ijodkor ozchilikni faol qo'llab-quvvatlasagina xalqimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va muddaolariga erishishlari mumkin. Shubhasiz, huquqiy demokratik davlat bosh islohotchi, progressiv o'zgarishlar tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida jamiyatning sivilizatsiyali taraqqiyotida yetakchi o'rinn egallar ekan, o'rta mulkdorlar qatlami uning ijtimoiy-siyosiy tayanchi, ijtimoiy barqarorlik va xalq farovonligining muhim manbai hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridaqilardan shunday xulosaga kelish mumkin:

- 1) milliy mustaqillik – milliy davlatchiligmizni qaytadan tiklash, o'z taqdirimizni o'zimiz belgilashimiz uchun imkoniyat yaratdi;
- 2) milliy davlatchilik – sivilizatsiyali taraqqiyotning zarur shartidir;
- 3) davlatning kuchi va qudrati-keng xalq ommasining siyosiy ongliligi va huquqiy madaniyatiga, siyosiy faolligiga bog'liqdir;
- 4) demoraktik davlat fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish orqaligina o'zining insonparvarlik, sivilizatsiya yaratuvchilik mohiyatini namoyon etadi;
- 5) shaxsnинг erkinlik darajasi va huquqiy davlatning shakllanishi sivilizatsiyali taraqqiyot mezonidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://www.norma.uz/muhim_voqealar/ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 25.12.2017
2. Гегель. Философия права. — М.: Мыслъ, 1990.
3. Яковлев Н.Н. Франклайн Рузвельт-человек и политик. М. Международные отношения, 1965.
4. Мирзиёев Ш.М. Конституция — эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
5. <https://president.uz/uz/lists/view/> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020
6. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида" ги Қонуни. Тошкент, 2020 йил 23 сентябрь, ЎРК-637-сон.
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимини катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
8. <https://kun.uz/> Давлат бошқаруви тизимини тубдан ислоҳ қилишнинг 6 та асосий йўналиши белгилаб берилди.